



YO‘L VA YO‘LAKLARNI BETONLASH YOKI YANGI ASFAL‘T YOTQIZISH JARAYONIDA KELIB CHIQUADIGAN MUAMMOLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19626189>

o‘q. R.U.Nazarov

talaba S.A.Abdumannonova

Namangan davlat texnika universiteti, Namangan, Uzbekistan

Annotatsiya: *Maqolada yurtimizni turli joylarida, shaharlarda, tuman va qishloqlarda katta va kichik yo‘l va yo‘laklarni barpo etishda va qayta ta‘mirlashda, yoki yangi qurilayotgan hamda qayta ta‘mirlanayotgan binolarning tashqi xududlarida yangi yo‘l va yo‘laklar, kichik maydonlar qurishda, eski yo‘llarni qayta ta‘mirlash (obodonlashtirish) ishlarini amalga oshirishda qo‘llanilayotgan beton hamda asfalt-beton materiallari ma‘lum vaqt o‘tishi bilan hosil bo‘ladigan yoriqlarni bartaraf etish masalasi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *beton, asfalt-beton, yo‘lak, ko‘chat, daraxt, bordyur, lotok.*

KIRISH

Ma‘lumki, “Yangi O‘zbekiston” massivlarini barpo etish, shaharlar, tuman markazlari hamda aholi punktlarida ekologik vaziyat va havo tozaligini yaxshilash maqsadida “Yashil makon” umummilliy loyihasi tuzilgan bo‘lib, yurtimizni turli joylarida jadal ishlar amalga oshirilmogda. Zamon talablariga javob bera oladigan yangi binolarni barpo etish, eski binolarni qayta ta‘mirlash, katta va kichik yo‘llar hamda maydonlar qurish, yangi ekinzorlar va daraxtzorlarni yaratish kabi masalalar ko‘zda tutilgan. Bu borada 2024-yil 2 noyabrdan 10 dekabrga qadar O‘zbekistonning barcha hududlarida daraxt ekish bo‘yicha “Dolzarb 40 kunlik” e‘lon qilingan edi. Ushbu vaqt mobaynida viloyatlarda bir necha million tup ko‘chatlarni katta ekinzor maydonlarida, yo‘l va yo‘laklarning atrofida o‘tkazildi. Mart va aprel oylarida ham ko‘plab viloyatlar daraxt ekish ishlarini to‘xtatmadi, turli xil mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari o‘tqazildi. Bugungi kunda kelib, o‘tkazilgan daraxtlarning 99 foizi yashil tusga kirib, shahar va tumanlarni chiroyiga chiroy qo‘shmoqda. Ba‘zi daraxtlarning tana qismi juda tez rivojlanayotgan bo‘lsa, boshqa daraxtlarning tana qismi juda sekin rivojlanadi. Bunga sabab, o‘tqazilayotgan daraxtlarning navi va turi turlicha bo‘lganligi hamda daraxtdagi rivojlanish sur‘ati ana shu naviga yoki turiga bog‘liq ekanligidir.

Respublikamizning barcha shaxar va tumanlarida obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlari bugungi kunda ham davom etmoqda. Mustaqil O‘zbekistonimizning taraqqiyoti uchun keng ko‘lamda olib borilayotgan ishlar, jumladan, ilm-fanni rivojlantirish, zamonaviy texnikalar yordamida ishlab chiqarishning yangicha



usullarini olib kirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ishsizlar sonini kamaytirish, yosh avlodlarni ertangi kun uchun yetuk insonlar qilib tarbiyalash, yurtimizda tibbiyot sohasida ham yangi qadamlar tashlash va katta yutuqlarga erishish kabi olib borilayotgan ishlar qatoriga ko‘kalamzorlashtirish ishlarini ham kiritish mumkin.

Yana bir asosiy masalardan biri, yurtimizda mehmon bo‘lib turgan xorijiy mehmonlarning fikri biz uchun juda muhm bo‘lib, o‘zbek xalqi nimalarga qodir ekanligini ko‘rsatib qo‘yishdir. Biz amalga oshirayotgan katta o‘zgarishlar xalqimiz va xorijiy mehmonlar ko‘nglida iz qoldirishdir. Yurtimizdagi manzarali va ko‘ngil-ochar joylar bilan jalb etib, kelajakda xorijiy sayyohlarning salmog‘ini oshirish, bu orqali yurtimizni dunyoga yanada tanitishdan iboratdir.

Insoniyat tomonidan yaratilayotgan bunday keng ko‘lamdagi ishlar negizida yurtning taraqqiyotini o‘stirish, xalqning ertangi kunini yaxshilash, farovon hayot kechirish ko‘zlangan. Yurtimizning turli joylarida tarixiy imoratlarini qayta ta‘mirlash va qurish ishlari, ularga olib boruvchi yo‘llarni ta‘mirlash, yangi ko‘p qavatli binolar tiklash yoki qayta jixozlash kabi misollar keltira olamiz. Albatda, yana juda ko‘plab misollar keltirib o‘tishimiz mumkin, har bir qilinayotgan ishlarning negizi xalq uchun foydali tomonlari hamda yomon oqibatlariga olib keladigan tomonlari o‘rganib chiqiladi so‘ngra amalga oshiriladi.

Qurilish sohasida amalga oshirilayotgan ko‘plab o‘zgarishlar, jumladan, eski imoratlarni qayta ta‘mirlash yoki o‘rnida zamonaviy ko‘p qavatli imoratlar qurish, Respublikamizning turli hudularida yangi shaxarlar paydo qilish, ta‘lablarga javob bermaydigan bino yoki inshootlardan vos kechish, xalqimizning yashash turmush tarzini yanada yaxshilash uchun ko‘ngil-ochar mavzelar tashkil etish kabi bir necha maqsadlar qo‘yilgan va ular asta-sekin qadamma-qadam amalga oshirilmoqda. Har bir qilinayotga ish o‘z samarasini bermoqda deb ayta olamiz, ko‘zlangan maqsadlarga asta-sekin erishilmoqda.

Yurtimiz taraqqiyoti va rivoji uchun amalga oshirilayotgan ishlarning barchasini samarali amalga oshirilmoqda deb aytish juda qiyin. Chunki, har bir sohada amalga oshirilayotgan vazifalar mukammal darajada bajarilmasligi, bajarish jarayonida me‘yoriy hujjatlarga e‘tibor bermasdan bajarilishi yoki qilinishi kerak bo‘lgan ishga to‘sqinlik qiluvchi boshqa hujjatlarning borligidir. Misol tariqasida, qurilish sohasida ham uchraydigan ana shunday muammodan birini ko‘rib o‘tamiz.

2. Tadqiqot metodikasi

Qurilishi amalga oshirilayotgan yangi binolar yoki qayta ta‘mirlanayotgan binolar atrofida qo‘shimcha ishlar amalga oshiriladi. Bunday qo‘shimcha ishlar quyidagilar:

- ko‘kalamzorlar (daraxtlar, gulzorlar, ekinzorlar);
- maydonlar (dam olish maydonlari, avtomobil turargohi, bolalar maydoni kabilar);



- yo‘l va yo‘laklar;
- bordyurlar;
- lotoklar (qor-yomgir suvlarini ketishi uchun);
- maxsus jihozlar (maxsus belgilar, skameykalar, urnalar, manzarali xaykallar va x.k).

Ular qurilish yakunlanishiga oz qolganda amalga oshiriladi hamda binoning yillar davomida qad rostlab, chiroyli ko‘rinishiga hizmat qiladi.

Bino atrofida yo‘l va yo‘laklar, maydonlar hosil qilish bilan bir qatorda shahar, tuman va viloyatlarni bog‘lab turuvchi yo‘llarni qayta ta‘mirlash, yangi yo‘llar hosil qilish jarayonlarida yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan darajada xatoliklarga yo‘l qo‘yilmoqda.

Bunday kamchiliklarga quyidagilarni keltirish mumkin:

Birinchi, mavjud daraxtlar yoki yangi o‘tkazilgan ko‘chatlar atrofi beton va asfalt-beton qorishmalari bilan to‘ldirib yuborilmoqda (1-rasm).

a)



b)



1-rasm. Atrofi betonlab tashlangan yangi o‘tkazilgan ko‘chatlar.

a – ko‘chatlar yo‘lakning o‘rta qismiga yaqin joyda, b – ko‘chatlar yo‘lakning chetki (bordyurga yaqin) joyda.

Binolar atrofidagi yo‘l va yo‘laklarga qaraganda shahar va tumanlarni bog‘lab turuvchi kichik va katta yo‘llarning qayta ta‘mirlanishi jarayonida mavjuq daraxtlar yo‘l va yo‘laklarning ichki qismida qolib ketmoqda. Bir necha yillar o‘tgandan keyin daraxtlarning tanasi kattalashish oqibatida yo‘l va yo‘laklarni yorilib ketishi, bordyurlar, yomg‘ir va tabiiy suvlarni oqib ketishi uchun o‘rnatilgan lotoklar notekkis ko‘rinishga kelib qolishiga sabab bo‘lmoqda (2-rasm).



2-rasm. Daraxtlarni rivojlanishi natijasida lotok va bordyurlarni notekkis holatga kelishi.

Ba'zi hollarda, tez katta bo'ladigan daraxtlarning ostki qismida tuproq maydonining hajmi yetarli darajada qoldirilmaslik oqibatida yo'l va yo'laklarda yorilishlar so'ngra notekkisliklar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda (3-rasm).



3-rasm. Daraxtlar ostki qismida yetarli darajada tuproq maydoni bo'lmagan holat.

Bunday hatoliklarni yurtimizning turli shahar va tumanlarida, yashash punktlarida uchratishimiz mumkin. Bundan keyingi yillarda yangi quriladigan va qayta ta'mirlanayotgan yo'l va yo'laklar, maydonlar tashkil etishda yuqoridagi hatoliklarni yo'l qo'ymaslik kerak. Agarda bunday hatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa,

daraxtlarning ostki qismida tuproq maydoni tashkil etilishi shart. Tuproq maydoni yetarlicha bo'lmasa, daraxtning yoshiga va tanasining kattalashish yillariga e'tibor berish kerak.

Shaxar va tumanlarni bog'lab turuvchi kichik yoki katta yo'llarni qayta ta'mirlashda (agar yo'l eni kengaysa) yoki yangi yo'l hosil qilishda mavjud



daraxt yoki kichik ko'chatlar ham muammo bo'ladi. Chunki, shaxar va tumanlarni bog'lab turuvchi yo'l va yo'laklarning eni katta masofalarni egallaydi hamda ularni to'g'ri chiziqlar shaklida barpo etilishi loyihalarda ko'rsatib o'tiladi.

Yo'l va yo'laklarning ichki qismida qolib ketgan daraxtlar insonlar harakatini, ba'zi hollarda mashinalar harakatini ham cheklab qo'yadi. Bunday qaraxtlarni sug'orish ishlari ham qiyin kechadi. Tanasi katta daraxtlarni sug'orish qiyin bo'lmasligi mumkin, lekin kichik ko'chatlarni sug'orish albatda muammodir.



4-rasm. SHimoliy Farg'ona kanali qirg'oqlaridagi xolat.

Har yili viloyat deputatlar kengashida va respublika Oliy majlisida, viloyat xududlarida yangi bog'cha, maktab va tibbiy muassasalarni qurishni manzillar ro'yxatiga kiritiladi. Afsuski ajratilgan yer maydonida daraxt yoki ko'chatlar mavjud bo'ladi. Loyiha tashkiloti quriladigan bino xududga shunday optimal joylashtirishni, yong'in xavfsizligi va boshqa me'yor talablariga

javob berish kerak bo'ladi. Loyihalanayotgan bino o'rnida ko'chat yoki daraxt bo'lishi mumkin bo'ladi.

Daraxtni ko'pincha ko'chirish imkoni bo'lmaydi. Davlat ekologiya qo'mitasi inspektori daraxtni kesishga yo'l qo'ymaydi. Inspektorlar asos sifatida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 yanvardagi 43-son [qarori](#) va "Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan yerlarda



daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish, kesish hamda daraxtlarni xatlovdan o'tkazish tartibi to'g'risida NIZOM" ko'rsatmoqdalar. Bu o'z navbatida qurilish muddatini uzayishi yoki Bosh rejaga nisbatan yangi quriladigan bino noqulay qurilishiga olib keladi.

Ariq, kanal, soy va daryolar atrofidagi daraxtlar ularni yemirilib ketishidan saqlaydi. Shuning uchun ham ariq, kanal, soy va daryo bo'ylaridagi daraxtlar miqdori kamayishiga yo'l qo'yilmaydi qayta ta'mirlash ishlarida beton qorishmasidan tekislovchi qatlam hosil qilinadi.

Qurilish ishlarini samarali tashkil qilishda kelib chiqadigan asosiy muammolardan biri bu qurilish hududida joylashgan mavjud daraxtlarning borligidir.

Qurilishda bunday xolatlarni oldini olish uchun Qurilish vazirligi va Ekologiya qumitasi mutaxassislari tomonidan kerakli me'yoriy qoida va tavsiyalar ishlab chiqishi xozirgi zamonning eng muxim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

3. Natijalar

Birinchi, mavjud daraxtlar mavjud hududlarda quyidagicha choralar qo'llab yo'l va yo'laklar amalga oshiriladi:

a) agar daraxt qisqa yillar oralig'ida tezda katta bo'lsa, unda daraxt ostki qismidagi tuproqning diametri (daraxt markazidan beton qatlam, bordyur yoki lotokgacha bo'lgan masofa) ni kamida 50

sm olgan maqul. Aksincha bo'lsa, ya'ni daraxt uzoq yillar oralig'ida sekin katta bo'lsa, tuproq diametrini kamida 30 sm olgan maqul. Ba'zi daraxtlarning tanasi kattalashgan sari daraxt tomirlari yer sirtiga chiqib qolishi ham mumkin (chinor daraxtlari misol bo'la oladi). Bu holatda ham beton va asfalt-beton yo'llarni yorilishiga, bordyur va lotoklarni notekkis ko'rinishga sabab bo'ladi. Bunday daraxtlar yo'l va yo'laklar, bordyurlar, lotoklardan kamida 1,5-2 m masofaga o'tkazilgan maqul.

b) yo'l va yo'laklar atrofida, ayniqsa avtomobil yo'llarining ikki tomoniga rejalashtirilayotgan manzarali yoki mevali daraxtlarning joylashish sxemasida yo'l bilan daraxt orasidagi masofa daraxtning naviga yoki turiga qarab olinadi.

Daraxt tanasi yuqorida aytib o'tilganidek yillar mobaynida kattalashib boradi. Tana kattalashgan sari uning shoxlari (butalari) ham ko'payib boradi. Daraxt yillar mobaynida sekin-asta rivojlansa, uning shoxlari ham sekin o'sadi. Lekin shunday daraxtlar borki, ular tez o'suvchi va shoxlarining soni tez ko'payuvchi bo'ladi. Bunday daraxtlar yo'l va yo'laklarda joylashgan maxsus belgilarni to'sib qo'yadi. Bu holatda yo'llarda katta va kichik ko'ngilsiz voqealar (avariyalar) sodir bo'lishiga sababchi bo'ladi. Daraxt kuchli shamolga bardosh bera olmasa, u holda ham yo'l va yo'laklardagi avto va boshqa transport texnikalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi, katta ariq va kanallarni qayta ta'mirlash jarayonida ariq va



kanallarning chetki qismlaridagi mavjud daraxtlar maxsus ruxsatnoma asosida barchasi olib tashlanadi. So'ngra ariq, kanal, soy va daryo bo'ylari loyiha ishlari asosida tekkislovchi qatlami yordamida tekkislash ishlari amalga oshiriladi. Aks holda oqava suvlar darxt ostini sekin asta yemirib tekkislangan beton qatlamini ham buzib tashlashga sababchi bo'ladi.

XULOSA

1. Shuning uchun yo'l va yo'laklarni barpo etishda loyihalash ishlaridan avval qurilish hududini (maydonini) yaxshilab o'rgangan ma'qul.

2. Qurilish paytida muammo keltirib chiqaruvchi barcha nuqsonlarni o'rganib bo'lingach, ularni bartaraf qilish

uchun kerakli hujjatlarni amalga oshirgan ma'qul.

3. Yo'l va yo'laklarni loyihalash jarayonida mavjud daraxtlarni cheklab o'tishni ilojisi bo'lmasa (daraxt manzarali yoki mevali bo'lsa), yo'lni egri chiziq shaklida yoki qarama-qarshi qatnov qismlarini alohida qilib bo'lgan afzal.

4. Tanasi kichik bo'lgan daraxtlarni iloji boricha boshqa hududga ko'chirish choralari ko'rish, agar manzarali daraxt bo'lmasa. O'rniga manzarali daraxtlarni ko'zda tutish kerak ekan.

Yuqoridagi kamchiliklarni inobatga olinsa, yurtimizdagi qurilishlarning sur'ati sezilarli darajada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR/ REFERENCES:

[1]. Mamadov, B., Muminov, K., Cholponov, O., Nazarov, R., & Egamberdiev, A. Reduction of Destructive Processes in Concrete Concrete Processing in Dry-hot Climate Conditions. *International Journal on Integrated Education*, 3(12), 430-435.

[2]. R. Nazarov, J. Makhmudov Issues To Increase Energy Efficiency Of Exterior Walls Of Modern Buildings. *International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR)* 5 (5), 2

[3]. SHNQ 3.06.03-21 «Avtomobil yo'llari» Rasmiy nashir. O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi. Toshkent 2021

[4]. O'zbekiiston Respublikasi Prezidentining PF-5863, 2019 yil 30 oktyabrdagi, "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmoni.

[5]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF №5084, 2021 yil 21 apreldagi «Namangan viloyatida tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.